

## JAMIYAT RIVOJIDA BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MA`NAVIYATNING TUTGAN O`RNI

**Jumayeva Dildora Junaytovna,**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi

### **Annotatsiya**

Barkamol avlodni tarbiyalash g`oyasi ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega, u insoniyatni ma`naviyat va ma`rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boruvchi olijanob g`oyadir [1].

O`zbek xalqining o`tmishida bu istiqbolli orzu doimiy maqsadga aylangan va bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig`i yoki ta`lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmandlari – ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadisshunoslar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo`lgan. Jumladan, barkamol avlod haqidagi yuksak g`oyalar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati («Fozil odamlar shahri»), Yusuf Xos Hojibning «Saodatga eltuvchi bilim», shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imomal-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahrori Valiy, Al-Marg`inoniy, AnNasafiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya`qub Charhiy, Xoja Muhammad Porso, Mahdumi A`zam Xojagon, Xoja Yusuf Hamadoniy, Abdulholiq G`ijduvoniy va boshqalarning «Ilmi hadis yo`nalishidagi ta`limotlari va AlXorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo`lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, Amir Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiytashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug`bekning koinot ta`limini ommaviy ravishda olib borishi (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta`limoti, Mirzo Boburning ta`limni («Xatti Boburiy») isloh qilish sohasidagi, Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma`rifatga chaqiruvchi ta`limotlari, Ma`mun akademiyasining «Donishmandlik uyi» dagi ta`limotlarida teran ifoda etilgan [1].

### **Abstract**

The idea of raising a perfect generation has both national and universal meaning, it is a noble idea that leads humanity to spirituality and enlightenment, to high perfection and goodness [1].

In the past of the Uzbek people, this promising dream has become a permanent goal, and achieving such a dream is not only the responsibility of the head of the family or trainers in educational institutions, but also the wise men and intellectuals of our country (scientists, poets, writers, historians, hadith scholars, etc.) and just rulers. was also the main goal. For example, high ideas about a perfect generation are Abu Nasr Farabi's Society of Virtues ("The City of Virtuous People"), Yusuf Khos Hajib's "Knowledge that Leads to Happiness", as well as At-Tirmizi, Ahmad Yassavi, Imamal-Bukhari, Bahauddin Naqshband, Haja Ahrari Vali. , Al-Marginani, AnNasafi, Az-Zamahshari, Najmuddin Kubro, Ya`qub Charhi, Khoja Muhammad Porso, Mahdumi Azam Khojagon, Khoja Yusuf Hamadani, Abdulhaliq G`ijduvani and others "Teachings in the direction of the science of hadith and Al-Khorazmi's worldly important discoveries (the founder of the algorithm), Ibn Sina's medicine, Abu Rayhan

Beruni's encyclopedic science and social moral views, Amir Temur's statesmanship and laws and his just social organization works, Mirza Ulug'bek's cosmic education. the teachings of Mirza Babur in the field of reforming education ("Hatti Baburi"), the teachings of Alisher Navoi calling for a just society and enlightenment, the teaching in the "House of Wisdom" of the Ma'mun Academy It is deeply expressed in limots [1].

Ismoil Al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham zarari yo'qdir», - deb yozadi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi.

Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish «Tib qonunlari», «Ash-shifo» va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor: «Birinchi, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishni, ikkinchi, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchi esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi», - deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilik» dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo'lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi. Shuningdek, «Hamma narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi», - deb ta'kidlaydi [2].

Zero, komil inson hozirgi davrda ham O'zbekiston taraqqiyotini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy barkamollik ham tarbiya tizimida muhim o'rinni egallaydi va boshqa tarbiyalar bilan birga amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya o'z oldiga qator vazifalarini qo'yadi. Jumladan, organizmni chiniqtirish, sog'liknimustahkamlash varivojlantirish, bolalarda yangi jismoniy harakat turlarini hosil qilish va qurollantirish, bolaning yoshiga, jinsiga chiniqqanlik darajasiga mos keladigan jismoniy harakat sifatlarini rivojlantirish va o'z sog'ligiga ongli munosabatda bo'lishni tarbiyalashdan iborat. Bu vazifalarni hal qilishda jismoniy tarbiya aqliy, estetik va mehnat tarbiyalari bilan hamkorlik qiladi.

Insonning sog'lom va barkamol o'sishi turli omil va vositalarga bog'liq. Avvalo nasl toza, soglom bo'lishi kerak, shu sababli sog'lom ota-onadan ,albatta, soglom farzand tutilishini alohida ta'kidlanadi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolari sog'lom

o`shini ta`minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlash yotadi.

Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi bo`lib, unga quyidagilar kiradi: Inson a`zolarining tuzilishi va ularning funktsional kamoloti, ichki a`zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tuzilishi, badanning uyg`unligi va ularning funktsional faoliyatini boshqarish.

Xulosa o`rnida Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini keltirish asosli, «Sog`lom fikr, yaxshi aql, va ilm-ma`rifatga ega bo`lmoq uchun badanni tarbiya qilish zarur. Badanning salomat va quvvatli bo`lmog`i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o`qimok, o`qitmok, o`rganmok, va o`rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim. Sog` badanga ega bo`lmagan insonlar amallarida ishlarida kamchiliklarga yo`l qo`yur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir».

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. T.: Ma`naviyat .2008.
2. O`zbekiston-Buyuk allomalar yurti. T.Ma`naviyat.2010.B-7.
3. Uvatov U. Donolardan saboqlar. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti, 1994.